XALQ DEPUTATLARI OQQO'RG'ON TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 5 - fevral VI-42-3-10-133-K/22 Oqqo‘rg‘on tuman hokimligi

Oqqo'rg'on tumanida 2022 yilda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar to‘g‘risida

Oqqo'rg'on tumanida 2022 yilda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalarni belgilab olish hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2021 yil 14 dekabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishning "Xizmatlar sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar natijadorligi hamda hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish, 2022 yilda mehnat balansi va bandlik dasturini shakllantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida"gi 55-son Bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan, Xalq deputatlari Oqqo'rg'on tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Oqqo'rgo'n tumanida 2022 yilda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilishi lozim bo‘lgan ustuvor vazifalar to‘g‘risida tuman hokimi F.Omonov axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Oqqo'rgo'n tumanida 2022 yilda xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining barcha o‘rinbosarlariga:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2021 yil 14 dekabrdagi 2022 yilda xizmatlar sohasini yanada oshirish bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriq va vazifalar ijrosini ta'minlash;

tumanda xizmatlar sohasini rivojlantirish yuzasidan tasdiqlangan dasturning bandma-band, o‘z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlash;

bu borada loyiha tashabbuskorlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratilishiga amaliy yordamlar ko‘rsatish;

tumandagi bo‘sh turgan bino-inshootlar va yer uchastkalarini tegishli tartibda ajratish, ulardan unumli foydalanish choralarini ko‘rsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (B.Omonov) hamda tuman hokimining birinchi o ‘rinbosari (K.Shintemirov)lar zimmalariga yuklatilsin.

Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi **F.Omonov**